




## 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida

### QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar - dekabr oylarida Farg'ona viloyatida jami **4 065,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **116,0 %** ni tashkil etdi.



**505,1**  
mlrd.so'm

- Yirik qurilish pudrat tashkilotlari

**2 513,0**  
mlrd.so'm

- Kichik korxonalar va mikrofirmalar

**1047,4**  
mlrd.so'm

- Norasmiy sektor

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **505,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi. O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **180,6** % ga ko‘p ishlar bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **12,4%** ni tashkil etib, o‘tgan yildagi ko‘rsatkich darajasidan **4,4** % punktga ko‘paygan.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular xissasiga jami qurilish ishlari hajmining **61,8** %i to‘g‘ri kelib, ular xissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **118,1** %ni tashkil etgan holda **2 513,0** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor xissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan - **5,4** % punktga kamayib, **25,8** %ni tashkil etdi va **1 047,4** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. O‘tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **95,5** %ni tashkil etgani kuzatildi.


### **Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo‘yicha qurilish ishlari**

#### **2019-yil (yanvar-dekabr)**

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **218,2** mlrd.so‘m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **5,4%** ni tashkil etdi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **3 847,3** mlrd.so‘m ishlar bajarilib, jami qurilish ishlari hajmining **94,6%** ni tashkil etdi.



Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi **7,0 %** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,7 %** punktga ko'paygan.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar xissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **2,6 %** punktga ko'payib, **59,1 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **-6,4 %** punktga kamayib **33,9%** ni tashkil etdi.



**Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari**

(jamiga nisbatan % da)




Binolar va inshootlar qurish bo`yicha qurilish ishlarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **7,0 %** ni tashkil etdi va o`ngan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **3,7 %** punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **59,1 %** (**2,7 %** punktga ko`paydi) va norasmiy sektorning ulushi **33,9 %** ni tashkil etdi va o`ngan yildagi ko`rsatkichga nisbatan - **6,4 %** punktga kamaydi.



Fuqarolik obyektlari qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **32,3 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **15,8 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **66,3 %** (- 17,2 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **1,4 %** ni tashkil etdi.



### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **25,4 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan - **4,8 %** punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **74,6 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **4,8 %** punktga ko'paygani kuzatildi.

**Hududlar kesimida qurilish ishlari**

No	Shahar tumanlar	2018-yil yanvar-dekabr (mlrd, so'm)	2019-yil yanvar-dekabr (mlrd,so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%)	Jamiga nisbatan ulushi (%) da
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>		<b>2942,7</b>	<b>4065,5</b>	<b>116,0</b>	<b>100,0</b>
1	Farg'ona shahar	648,4	856,2	111,0	21,1
2	Qo'qon shahar	338,1	410,9	102,1	10,1
3	Quvasoy shahar	228,4	296,8	109,2	7,3
4	Marg'ilon shahar	208,2	343,8	138,7	8,5
5	Oltiariq tumani	85,0	144,7	142,8	3,6
6	Qo'shtepa tumani	145,4	180,8	104,2	4,4
7	Bag'dod tumani	152,2	190,2	105,0	4,7
8	Buvayda tumani	100,4	120,1	100,4	3,0
9	Beshariq tumani	104,2	278,3	224,4	6,8
10	Quva tumani	127,5	181,5	119,4	4,5
11	Uchko'prik tumani	139,1	144,0	87,0	3,5
12	Rishton tumani	57,8	71,6	104,0	1,8
13	So'x tumani	44,5	51,6	97,4	1,3
14	Toshloq tumani	71,9	101,9	118,9	2,5
15	O'zbekiston tumani	48,7	83,0	143,2	2,0
16	Farg'ona tumani	192,7	84,3	36,8	2,1
17	Dang'ara tumani	126,7	235,8	156,0	5,8
18	Furqat tumani	87,9	131,3	125,1	3,2
19	Yozyovon tumani	35,6	158,7	374,4	3,8

Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi

(jamiga nisbatan, % da)




O'z kuchi bilan bajarilgan jami qurilish ishlari hajmining eng yuqori xissasi Farg'ona shahrida kuzatildi va jami qurilish ishlari hajmining **21,1 %** ni tashkil etdi. Qo'qon shahrida **10,1%** ni, Marg'ilon shahrida **8,5%**, Quvasoy shahrida **7,3%**ni tashkil etdi. Shu bilan birga Beshariq tumanida **6,8%**, Dang'ara tumanida **5,8%**, Bag'dod tumanida **4,7%**, Qo'shtepa tumanida **4,4%**, Quva tumanida esa **4,5%**, Yozyovon tumanida **3,8%**ni tashkil etdi. Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmida xissasi kam bo'lgan tumanlar xususan, O'zbekiston tumanida jami qurilish ishlari hajmining **2,0 %**, Rishton tumanida **1,8%** ni, hamda So'x tumanida **1,3 %** ni tashkil etdi.



### Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Hududlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak joriy davrda qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori xissasi viloyatning Yozyovon tumanida **3,7 m** ga ko'payib, jami qurilish ishlari hajmining **3,8 %** ni tashkil qildi. Beshariq tumanida **2,2** marttani tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **6,8 %** ni, Dang'ara tumanida **156,0 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **5,8 %** ni, Oltiariq tumanida **142,8 %**ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **3,6 %** ni, Furqat tumanida **125,1 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **3,2 %** ni, Quva tumanida **119,4 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **4,5 %** ni tashkil etdi. Shuningdek, Farg'ona shahrida o'sish sur'ati **111,0%** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **21,1 %** ni tashkil etdi. Qo'qon shahrida o'sish sur'ati **102,1 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **10,1 %** ni tashkil etdi. Marg'ilon shahrida o'sish sur'ati **138,7 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **8,5 %** ni tashkil etdi. Quvasoy shahrida **109,2 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **7,3 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlari tarkibi**
*(jamiga nisbatan %da)*

	<b>Yirik pudrat tashkilotlari</b>	<b>Kichik korxonalar va mikrofirmalar</b>	<b>Norasmiy sektor</b>
<b>Jami viloyat</b>	<b>12,4</b>	<b>61,8</b>	<b>25,8</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona sh.	9,7	75,1	15,2
Qo'qon sh.	31,3	53,8	14,9
Quvasoy sh.	4,1	86,7	9,2
Marg'ilon sh.	0,1	77,3	22,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq t.	0,5	63,5	36,0
Qo'shtepa t.	0,3	44,1	55,6
Bag'dod t.	5,2	84,9	9,9
Buvayda t.	1,2	58,5	40,3
Beshariq t.	63,1	11,8	25,1
Quva t.	0,4	50,6	49,0
Uchko'prik t.	2,2	85,1	12,7
Rishton t.	1,1	64,4	34,5
So'x t.	1,1	75,4	23,5
Toshloq t.	0,7	55,3	44,0
O'zbekiston t.	0,6	69,6	29,8
Farg'ona t	9,9	76,9	13,2
Dang'ara t.	5,4	38,9	55,7
Furqat t.	0,3	36,4	63,3
Yozyovon t.	40,6	45,8	13,6


**Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi**
**“Investitsiyalar va qurilish statistikasi” bo'limi**
**Aloqa telefoni: (73) 241-98-42**